

## 2018 yil yanvar-aprel oylarida Qurilish ishlari


### RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi - **566,2 mldr. so'm**
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi - **17,2 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – **55,0 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – **27,8 foiz**


Joriy yilning yanvar-aprel oylari bo'yicha Surxandaryo viloyatida 566,2 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj** ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,3 foizni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-apreliga nisbatan 15,5 foiz punktga kamaydi.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 97,1 mlrd.so'mni yoki 145,4 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 48,9 foiz punktga oshdi.

### **Qurilish ishlari** (*mldr.so'm*)



Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 55,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurishi, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.






## Mulkchilik shakllari

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 555,4 mldr.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,1 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,3 foiz punktiga kamaydi.

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (foizda)



*Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish  
statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul:*

*Sh.Gaipov*

*Aloqa telefoni:*

*(0371) 230-85-79*